


## MAFKURAVIY BUZG'UNCHILIK – JAHOLAT BOTQOG'I



Panjiyev Sardor Zafar

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi  
2-o'quv kursi 204-guruh kursanti

„Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi taxdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ha muhimdir”

Shavkat Mirziyoyev

**Аннотация:** Хотя корни религиозного экстремизма и терроризма уходят в глубокую историю, они никогда не угрожали социальной стабильности и развитию, как сегодня. Потому что сейчас религиозный экстремизм и терроризм носят глобальный характер и представляют равную угрозу для всех народов, стран и регионов мира. Во второй половине XX века религиозный экстремизм и терроризм, основанный на нем и подпитываемый им, прикрытый ложными религиозными лозунгами и учениями, серьезно угрожают жизни стран.

**Ключевые слова:** страны мира, взаимодействие, глобализация, социальное явление, интеграция, иностранные инвестиции, капитал и товары, современные коммуникации, информационные технологии, наука, экологические катастрофы

**Annotation:** Although the roots of religious extremism and terrorism go back to a long history, they have never threatened social stability and development as they do today. Because now religious extremism and terrorism have a global character and pose an equal threat to all peoples, countries and regions of the world. In the second half of the 20th century, religious extremism and terrorism based on it and fed by it, masked by false religious slogans and teachings, seriously threaten the lives of countries.

**Key words:** countries of the world, interaction, globalization, social phenomenon, integration, foreign investments, capital and goods, modern communication, information technologies, science, environmental disasters

**Annotatsiya:** Diniy ekstremizm va terorizm ning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmagan. Zero, hozirda diniy ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo'lib, dunyoning barcha xalqlariga, mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda. XX asrning ikkinchi yarmida diniy ekstremizm va unga asoslanib, undan oziqlanayotgan, soxta diniy shiorlar va ta'limotlar bilan niqoblangan terrorizm mamlakatlar hayotiga qattiq tahdid solmoqda.

**Kalit so‘zlar:** dunyo mamlakatlari, o‘zaro ta’sir, globallashuv, ijtimoiy hodisa, integratsiya, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, zamonaviy kommunikatsiya, axborot texnologiyalari, ilm-fan, ekologik ofatlar

G’oyalar kurashi avj olgan XXI asrda dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash yo’lida xalqlar hayotini izdan chiqarishga qaratilgan yangi shakldagi tahdidlarning natijasida buzg’unchi g’oyalar mafkura maydonini qurshab olayotgani barchamizdan ogohlilik va xushyorlikni talab etadi. Bu tahdidlarga qarshi kurash nafaqat musulmon mamlakatlari, balki butun dunyo uchun ham dolzarb bo’lib qolmoqda. Shuning uchun ham ekstremistik faoliyat qanday ko’rinishga amalga oshirilmasin, mohiyatan insoniyatga qarshi jinoyatdir. Shunday ekan zo’ravonlik, qo’poruvchilik, qotillik va qaboxat o’chog’iga aylangan diniy ekstremizm kabi mutaassiblikka yo’g’rilgan buzg’unchi urinishlarni oldini olish va qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylandi va bu yo’lda har bir individ, xalq, jamiyat, elat, millat, mamlakat o’zlarining mustaqilligini asrashi, yanada mustahkamlashi,xalqining tinch va osoyishta hayotini, milliy qadriyatlarining daxlsizligini ishonchli himoya qilishda yosh avlodning ijtimoiy faolligini kuchaytirishi kerak va bu O’zbekiston birinchi prezidenti Islom Karimov aytgan quyidagi so’zlari „ fikrga qarshi fikr, g’oyaga qarshi g’oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish” har qachongidan ham muhimdir. Bu borada dunyoning turli davlatlarida millatlarlar, etnik va mintaqaviy mojarolarining avj olayotgani kuzatilayotgan davrda, ularni bartaraf etish uchun ma’naviy yuksaklik va diniy bag’rikenglik qadimdan qaror topgan O’zbekistonning ibratli tajribasini muvaffaqiyat bilan qo’llash mumkin.

Ekstremizm va terrorizm odamlarning ertangi kunga bo’lgan ishonchiga putur yetkazibgina qolmasdan, butun millatlar genofondiga va turli diniy e’tiqod vakillari, hattoki, sivilizatsiyalar orasidagi o‘zaro ishonchga ham soya solmoqda, jahon taraqqiyotining tamal toshi bo’lgan xalqaro iqtisodiy va madaniy hamkorlikning rivojlanishiga to’siq bo’lmoqda.

Dinlararo bag’rikenglik g’oyasi turli diniy e’tiqodga ega bo’lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, oliyjanob g’oya va ezgu niyatlar yo’lida hamroh va hamjihat bo’lib yashashini anglatadi. Hozirgi vaqtarda yoshlar ma’naviyatiga tajovuz solayotgan taxdidlar qatorida dinni niqob qilib, diniy qadriyatlarimizni oyoqosti qilishga urinayotgan ekstremistik va missionerlik harakatlarining faoliyati jiddiy tashvish uyg’otmoqda. Dunyodagi dinlarning barchasi zaminida ezgu g’oyalar turadi, ular insonlarni xalollik, yaxshilik, tinchlik va do’stlik kabi fazilatlar tomon chorlaydi. Azaldan dinlar insonlarni ezgulik va yaxshilikka chaqirib kelgan. Biror bir dinda yomonlikka, zo’ravonlikka chaqiruvchi g’oyalar mavjud emas. Biroq ba’zi „siyosiy kuchlar” va diniy tashkilotlar yoki ayrim dindorlar o’z g’arazli maqsadlariga erishish maqsadida muqaddas kitoblarni bir yoqlama talqin qilib, bu zaminning muqaddas

kitoblarining ezgulikka yo'g'rilgan amallarini yovuzlikka aylantirishga urinadilar, shuningdek, jamiyat, odob - axloq va davlatlar qonun – qoidalariiga mos kelmaydigan soxta mafkurani targ'ib qilib, buzg'unchilik faoliyati bilan shug'ullanishadi. Diniy ekstremizm aynan bir din bilan bog'liq emas. Chunki mavfkuraviy tajovuzlar maqsadi yo'lida amalga oshirilgan harakatlar din va uning yo'naliшlarini qamrab olmoqda.

2002 – yil 3 – aprelda qabul qilingan „Xalqaro terrorizm haqidagi Kuala Lumpur Deklaratsiyasi”da shunday deyilgan:

„Biz, o'zimizning asosiy qonunlarimizga sodiq ekanimizni, islom ta'limoti odamlarni qirg'in qilishdan nafratlanishini, tinchlikni, matonatni va o'zaro hurmatni qadrlashini, shu bilan birga, begunox insonlarni o'ldirishni taqiqlashini yana bir bor ta'kidlaymiz. Biz, terrorizmga aloqador har bir holatni islom va musulmonlarga bog'lashni rad etamiz. Chunki terrorizm hech qaysi bir dinga, madaniyatga yoki millatga daxldor emasdир”.

Bu kabi illatlarning barcha xalqlarga ta'sir kuchi eng avvalo internet ijtimoiy tarmoqlarida mafkuraviy xurujli axborotlarning keng tarqalishidir. Vaqt o'tishi bilan esa axborot kommunikatsiyalari rivojlandi, bu esa internetning ommalashuviga olib keldi va „butun jahon o'rgimchak to'ri” inson extiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda turli ko'rinishdagi ma'lumotlar va ko'ngilochar dasturlar orqali qulayliklar yaratdi. Bu esa internetning insonlar hayotining uzviy – ajralmas qismiga aylantirdi va „virtual hayot” tizimini vujudga keltirdi hamda internet hayotining ommalashuviga sabab bo'ldi. Bu yo'lda ekstremistik faoliyat ishtirokchilari virtual olamni „yaxshi ko'radigan”larning aql-idroki ustidan hukmronlikni o'rnatishga harakat qilishdi, bu harakatlari bolalar va o'smirlarga psixologik va jismoniy zarar yetkazishga xizmat qilmoqda. Bugungi globallashuv zamonida yoshlar ma'naviyatini asrash, yosh avlodning qalbini va ongini turli yod g'oyalar ta'siridan saqlash hamda mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularning barkamol va komil inson bo'lib tarbiyalanishi, o'sib ulg'ayishi hamda ularda internet madaniyatini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratish dolzarb vazifadir. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti Islom Karimov „Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubxasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi”, deb ta'kidlagani bejiz emas.

Shunday ekan, yoshlarning ma'naviy olami, ma'rifatini oshirish, diniy va dunyoviy bilimlar bilan qurollantirish, bir so'z bilan aytganda, ularning tarbiyasiga ma'sul ekanligini har bir shaxs his etmog'i lozim. Bu haqda yurtimiz birinchi prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, “ farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubxasiz, beqiyos ahamiyat kasb

etadi''. Zero, jismoniy tarbiya bolani jismonan baquvvat, kuchli, sog'lom etib tarbiyalasa, ma'naviy tarbiya orqali unda yuksak axloq, ezhgulik, insonparvarlik, shijoat, raxmdillik, o'z xalqiga Vataniga sodiqlik va mehnatsevarlik sifatlari shakllanadi. Ma'naviy tarbiya yosh avlodning o'zligini saqlashga, uning botiniy ong osti olamini ma'rifiy boyirishga xizmat qiladi. Bu borada buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy aytganidek, “Inson tabiatning eng oliv zoti, kamolotidir, inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi. Insonga katta sharaf ko'rsatilgan – unga aql-zakovat va kuch berilgan. Shu sababdan insonning ma'naviy olami uning oldiga qo'yilgan vazifalarga mos bo'lishi uchun u yuksak axloqli, bilimli, ma'rifatli bo'lmosg'i darkor”. O'zbekiston Respublikasi prezidenti, muhtaram yurtbosimiz Shavkat Mirziyoyev „Yoshlarni O'zbekistonning eng katta boyligi, beba ho xazinasi sifatida yuksak qadrlayman!” deb aytib o'tgan gaplari prezidentimizning biz yoshlarga qanchalik e'tibori va ishonchini bildiradi.

Shunday ekan, farzand tarbiyasi, eng avvalo, uning ma'naviy poydevori qanchalik mustaxkamligi bilan belgilanadi. Darhaqiqat, go'zal xulq ila tarbiyalangan bola hayotda aql-idrok bilan ish tutadi, iymon-e'tiqodiga sobit turadi, erkin va mustaqil fikrlaydi, har xil aldrovlarga uchmaydi hamda g'arazli tashviqotlarga berilmaydi.

Hozirgi globallashuv sharoitida din bilan bog'liq muammolar jahoning turli hudud va mamlakatlarida nozik masalalardan biriga aylandi. Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2017-yil 15-iyun kuni Toshkent shaxrida „Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi “ mavzusida anjumanda mazkur masalaga e'tibor qaratib, shunday dedi: „Biz ko'p joylarda jaxolatga qarshi ma'rifat tashabbusi bilan chiqyapmiz. Muqaddas islom dinini niqob qilib boshqa ko'chalarga kirib ketayotgan johil kimsalar bir narsani tushunmaydi yoki tushunishni istashmaydi. Ya'ni, islom faqat nurli hayotga, ilm-ma'rifatga, yaxshilikka undaydi. Xech qachon xunrezlik, qotillik, zo'ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g'oyalarga aldanib, zararli oqimlarga kirish, terrorchi bo'lish – bu O'zbekiston xalqiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Alhamdulillah, hammamiz musulmonmiz, buning shukronasini qilib, farzandlarimizni ham bunday ne'matning qadriga yetadigan insonlar etib tarbiyalashimiz kerak emasmi?” .

„Ayni mahalda bir millat o'z ehtiyojlari va manfaatlarini boshqa millatning yoki boshqa xalqlar vakillarining xuddi shunday intilishlarini kamsitish hisobiga ro'yobga chiqarmasligi lozim. Ba'zi millat, etnos vakillarining boshqalarga takabburlik bilan, mensimay munosabatda bo'lishi kabi holatlar yuzga chiqishi mumkin bo'lgan har qanday sharoitda barham berish lozim.

Dinning yuksak rolini e'tirof etish bilan birga , diniy dunyoqarash tafakkurining, insonning o'zini o'rab turgan dunyoga, o'zi kabi odamlarga munosabatining yagona usuli bo'limganligini ham ta'kidlash zarur. Dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham

u bilan yonma-yon va u bilan teng yashash huquqiga ega bo'lgan holda rivojlanib kelgan”

- O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti Islom Karimovning „O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli kitobidan.

So'ngi yillarda Mamlakatimizda diniy sohalarda ham tub islohotlar amalga oshirilib, bu ijobiy islohotlar asrlarga tatigulik darajada katta miqyosga ega bo'ldi. Shu jumladan:

- 2017-yil Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Baxouddin Naqshband majmuasida Mir Arab oliy madrasasiga asos solindi va bundan tashqari Imom Termiziyl xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil qilindi;

- 2017-yil 25-iyunda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan F'arg'onada Islom huquqi ilmiy maktabi, Qashqadaryo viloyatida aqida ilmiy maktabi, Buxoro viloyatida tasavvuf ilmiy maktabi, Samarqandda kalom va hadis ilmiy maktablari tashkil qilindi’

- 2017-yil O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi diniy talim muassasalari qoshida ( 3 oydan 6 oygacha ) Qur'oni karim va tajvid fanlarini o'rgatuvchi pullik o'quv kurslari tashkil etildi;

- 2017-yil 23-iyun kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil qilindi.

- 2017-yil islom fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajisini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura hamda islom fanlari bo'yicha fan doktori (Dsc) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi doktorantura tizimi tashkil etildi;

- 2017-yil 17-sentabrda Qozog'istonda bo'lib o'tgan Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo'yicha birinchi sammitidagi nutqida „Musulmon olami yosh olimlari xalqaro markazini tuzish”, “Islom hamkorlik tashkilotining maxsus mukofotini ta'sis etish” takliflarini o'rtaga tashladilar;

- 2017-yil 19-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish hamda „Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi. 2018-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining yalpi sessiyasida O'zbekiston tomonidan taklif etilgan „Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” rezolyutsiyasi qabul qilindi;

2018-yilning 16-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga ko'ra:

- O'zbekiston islom akademiyasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti negizida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi;

- O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mita tuzilmasida Diniy – ijtimoiy jarayonlarni o'rganish axborot-taxlil markazi tashkil etildi;

- O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi xuzurida Malka oshirish va qayta tayyorlash markazi hamda „Ziyo” media markazlari tashkil etildi;

- O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining oliy diniy-ma'rifiy ta'lim muassasasi shaklida Hadis ilmi maktabi tashkil etildi;

- O'zbekiston Musulmonlar idorasi huzurida „Vaqf” xayriya jamoat fondi tashkil etildi 2017-2020-yillarda turli yot oqimlar ta'siriga berilib, qilgan ishidan pushaymon bo'lgan 20 mingdan ziyod fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, hayotda o'z o'rmini topishiga yordam berildi.;

- Islom ilm-fani va madaniyatiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ibratli hayoti va boy ilmiy merosini chuqr o'rganish, mamlakatimiz dovrug'ini jahon miqyosida keng yoyish ishiga munosib hissa qo'shib kelayotgan shaxslarni rag'batlantirish maqsadida "Imom buxoriy" davlat mukofoti ta'sis etish belgilandi.

Bundan tashqari 2020-yilda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi va diniy kadrlar salohiyatini oshirish uchun ularni Misr davlatidagi Al-azzar oliy diniy dorilfununiga o'qishga yuborish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Ushbu yuqori darajadagi ishlarning natijalarini e'tirof etgan holda 2018-yil 11-dekabr kuni AQSH Davlat kotibi Maykl Pompeo o'z qarorida rasmiy ravishda O'zbekistonni din erkinligini buzganligi sababli "alohida tashvish" (CPC) mamlakatlari ro'yxatidan chiqarib tashlangani quvonarli holatdir.

Bu amalga oshirilayotgan islohotlar mahalliy va xorijiy ekspertlar tomonidan yuqori baholanib, e'tirof etilmoqda.

Vatanimiz O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bunday tub chora-tadbirlar ma'lum ma'noda yoshlar ongini boyitish, haqiqiy milliy va diniy qadriyatlar bilan har xil bid'at-xurofot amallarni farqlash, turli diniy oqim va yo'nalishlar ta'siriga, ekstremistik va terroristik guruxlarning aqidasiga qarshi mafkuraviy immunitet hosil qilish imkonini berdi. Shunday ekan har qanday millat milliy dinisiz yashayolmaydi va islom dinida ham yoshlarga, ularning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, Qu'onda mingdan ortiq oyatlar odob-axloq, tarbiya va ilmg'a aloqadorligi insonni barkamollikka yetaklaydigan mezon sifatida ko'rish mumkin. Xalqimiz qoniga singib ketgan diniy qadriyatlarda farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilishi xususida hadislarda „Kishi farzandining tarbiyasini bilan har kuni yarim soat shug'ullanishi sadaqa berishdan yaxshiroqdir” deb ta'kidlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ekstremizm va terrorizmnинг na dini, na millati va na Vatani bor, ya'ni bu kabi harakatlarning Sayyoramizdag'i butun kishilik

jamiyatining nafaqat buguniga, balki kelgusidagi istiqboliga ham jiddiy taxdid solayotgan omilga aylangani insoniyat unga qarshi birgalikda, bir butunlikda kurashgandagina ijobiy natijaga erishish mumkinligini aytishimiz mumkin.

Bugungi kunda Jahonda yuz berayotgan geosiyosiy, geoijtisodiy va geoijtimoiy jarayonlarning salbiy tendensiyalari barchamizga ayon bo'lmoqda. Hozirgi zamonning, davrning talabidan kelib chiqib, dunyoda, xususan, mamlakatimizda shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, ularning hayotiy muhim manfaatlarini ichki va tashqi xavf-hatarlardan himoyalash eng muhim maqsadlarimizdan biri hisoblanadi.

Bir haqiqatni alohida e'tirof etish joizki, ya'ni ota-bobolarimiz dini bo'lmish islom har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishiga chorlagan, og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, umuman aytganda, xalqimiz uchun ham imon, ham axloq, ham ma'rifat bo'lib kelgan. Hozirda ham bu ezgu-hayotiy ma'rifat odamlarga ma'naviy-ruxiy kuch-quvvat bag'ishlab, o'zaro mehr-oqibatlilik tuyg'ularining rivojlanishiga va kamol topishiga xizmat qilmoqda.

Ya'ni yoshlarni bunyodkorlik ruxida tarbiyalash, beg'ubor qalbini olivjanoblik, xayru saxovat, mehr – oqibat kabi sof va pokiza, insoniylik tuyg'ulari bilan to'ldirish, ezgu va umumbashariy maqsadlarga safarbar etish, buzg'unchi, zo'ravon, xudbin, bag'ritosh va qaxri qattiq bo'lib tarbiya topishining oldini olishga a'lohida e'tibor qaratish lozim desak adashmagan bo'lamiz.

Demak, har bir inson har qanday dinga tolerantlik jihatdan qarashi , loqaydlik, beparvolikning olidini olishi, yon-atrofida bo'layotgan voqeа-hodisalarga xushyorlik bilan qarab, Vatan tinchligi yo'lida sergak va ogoh bo'lib yashashi, yoshlarimizning ongu qalbinijaholatdan, yot va zararli g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ajdodlarimizga armon bo'lib qolgan, biz erishgan mustaqillik va tinchlik va osoyishtalikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashning muhim jihatni hisoblanadi.

Buni Vatanimiz uchun, unda yashayotgan oilamiz uchun har birimiz unutmasligimiz hamda tinchlik uchun doimo o'zimizning bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etib, buyuk va xalqparvar kelajak uchun jon-jahd bilan kurashib yashashimiz lozim.

Ekstremistik harakatlarning oldini olish uchun: eng avvalo mahallarda va undagi oilalarda ota-onalar bilan, maktablarda, akademik-litseylarda, jamoat joylarida tushuntirish targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, ommaviy axborot vositalarida ekstremizmga o'xshagan holatlarning salbiy jihatlarini yoritib borish va bu borada aholining huquqiy, madaniy va ijtimoiy ongini oshirish, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy ishlar ko'lagini kengaytirish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni takomillashtirish zarur.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):**

1. Mirziyoev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat biln davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild –T.: O'zbekiston , 2018. 29-30-betlar.
2. Mirziyoev.Sh.M. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chiqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. -T.: O'zbekiston. 2017. –326 b.
3. Safoeva. S. Globallashuv jarayonining ijtimoiy hayot sohalariga ta'siri. // Globallashuv jarayonida jamiyatni demokratlashtirishning siyosiy, falsafiyhuquqiy masalalari. –Toshkent: Falsafa va huquq nashriyoti, 2006, 27-bet.
4. Quchqarov. V. Milliy o'zlikni anglash va barqaror taraqqiyot T.: Akademiya , 2013 67-bet
5. Zokirov B. G'arb tamadduni: inqiroz alomatlari // Tafakkur, 2007. №2. – 23 b.
6. Quronov. M Mafkuraviy tahdidlar va yoshlar tarbiyasi T.: Akademiya ,2008 54-bet
7. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiysiyoziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 P.